

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar vazirining
2024-yil "27" dekabr dagi
485-sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan.

"JISMONIY TARBIIYA"

yo'nalishi bo'yicha akademik litseylar pedagog xodimlarini
malakasini oshirish kursining o'quv dasturi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
OLIIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI

*Malaka oshirish kursining o'quv dasturi Oliy, o'rita maxsus va professional
ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini
Muvofiglashuvchi kengashining 2024-yil 24.12. dagi 12 - sonli
bayonnomasi bilan ma'qullangan*

Tuzuvchilar: Ibragimov M.B. - Buxoro davlat universiteti Sport faoliyati
kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD),
Ibragimov B.B. - O'zbekiston Milliy universiteti Taekwondo va
sport faoliyati kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD).

Taqrizchi: Saidov I.I. - Buxoro davlat pedagogika instituti, "Jismoniy
tarbiya va sport" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD).

Xorijiy ekspert: Zebzeyev Vladimir Viktorovich p.f.d, professor, Rossiyaning
Chaykovskiy nomli jismoniy madaniyat va sport davlat
akademiyasi.

*O'quv dasturi Buxoro davlat universiteti Ilmiy-metodik Kengashining qarori
bilan tasdiqla tavsiya qilingan. (2024-yil "___" _____dagi
___-sonli yig'ilish bayonnomasi)*

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan
"Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil
3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar
faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son Qarori,
hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va
pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish
to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan
kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish
jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog
xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik
litseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning ta'lim muassasalarida
o'tkaziladigan jismoniy tarbiya va sport darslarida sport o'yinlarini tashkil etish,
jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixini ahamiyatini o'zlashtirish, xorijiy
mamlakatlar jismoniy tarbiya va sport ta'lim tizimidagi tajribalarni o'rganish va
amaliyotga tatbiq etish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy
kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning
ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo'yicha bilim, ko'nikma va
malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Malaka oshirish kursining o'quv dasturi quyidagi tayanch modullar
mazmunini o'z ichiga qamrab oladi:

- 1.1. Sport o'yinlarini tashkil etish.
- 1.2. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi.
- 1.3. Jismoniy tarbiya va sportda ilg'or xorijiy tajribalar.
- 1.4. Yakuniy nazorat.

Kursning maqsadi va vazifalari

Akademik litseylar pedagog xodimlarining malakasini oshirish kursining
maqsadi pedagog xodimlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-
metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va
malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining
uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

pedagog xodimlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz
yangilash va rivojlantirish;
pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi
o'qitish sifati va samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'ladigan kasbiy mahorat
darajasini oshirish;

o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo'nalishlarda bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- sport o'yinlarini tashkil etish (basketbol 3x3, badminton, mini-futbol) tarixi va rivojlanishi bosqichlarini;
- sport o'yinlarining tarixi va rivojlanishi, Osiyo va Yevropada tarqalishi, olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilishini;
- sport o'yinlari (basketbol 3x3, badminton, mini-futbol) ning qoidalarini, maydoni va jihozlarning o'lchamlarini;
- sport o'yinlari (basketbol 3x3, badminton, mini-futbol) assotsiatsiyalarining tashkil topishi, faoliyati va ular rahbarligida sport musobaqalarini o'tkazishini;
- sport o'yinlari (basketbol 3x3, badminton, mini-futbol)ni tashkil etishda jismoniy tayyorgarlikni;
- qadimgi davrdagi jismoniy tarbiyani;
- qadimgi davrda jismoniy tarbiyaning xususiyatlarini;
- qadimgi Sharq davlatlaridagi jismoniy tarbiyani;
- qadimgi Gresiya davlatlarida jismoniy tarbiyani;
- zamonaviy Olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishini;
- XIX asrning oxirida zamonaviy olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasining hayotga tatbiq etilishini;
- xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etilishini;
- xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlarini;
- xorijiy davlatlar ta'lim tizimi taraqqiyoti va ta'lim tizimi strategiyasini;
- xorijiy davlatlarda ommaviy sportni tashkil etish tamoyillarini *bilishi* lozim.

Tinglovchi:

- sport o'yinlari (basketbol 3x3, badminton, mini-futbol)da mashg'ulot va darslarni tashkil etish;

- sport o'yinlari (basketbol 3x3, badminton, mini-futbol)da hujum va himoya taktikalar bo'yicha amaliy mashqlar bajarish;
- o'yinlarda jamoaviy, guruhli va yakka holda hujum va himoya taktikalari bo'yicha amaliy mashqlar bajarish;
- sport o'yinlarini tashkil etish (basketbol 3x3, badminton, mini-futbol) da zamonaviy o'yin texnikasi va taktikasi, hujumga qarshi tez hujum taktikalari, o'yinchilarni joylarini almashtirish, to'psiz harakat qilish texnika va taktikalari bo'yicha amaliy mashqlar bajarish;
- Sparta va Afina jismoniy tarbiya tizimlarini solishtirish;
- O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishini tahlil etish va baholash;
- sobiq Ittifoq davrida jismoniy tarbiya va sport tizimini tahlil qilish;
- jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash;
- I-Xalqaro ta'ris Kongressining tarixiy ahamiyatini yoritib berish *ko'nikma va malakalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya va sport darslarida sport o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazishga o'rgatish;
- sport turlarida jarohat va uni oldini olish;
- O'zbekistondagi jismoniy tarbiya va sportni rivojlanish xususiyatlarini ochib berish;
- olimpiya shahrida olib borilgan arxeologik qazilmalar va ularning tahlilini amalga oshirish;
- xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;
- sport ta'limi sifatini oshirishda AQSh, Yevropa va Osiyo davlatlari tajribasidan foydalanish;
- sport ta'limi sifatini oshirishning global ahamiyatini ochib berish;
- ommaviy sport turlarini tashkil etish va boshqarishda xorijiy tajribalardan samarali foydalanish;
- professional sportni tashkil etishda rivojlangan davlatlar tajribasini qollash *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Kursning hajmi

Malaka oshirish kursi 8 kredit (48 soat)ni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 4 kredit (24 soatga mo'ljallangan tayanch modullari) ishdan ajralgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish mintaqaviy markazlarida o'qish orqali hamda ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish shakllarini bajargan holda kamida 4 kredit yig'ish orqali amalga oshiriladi. Mustaqil malaka oshirish shaklida pedagog xodimlar tanlov modullarini o'zlashtirish orqali hamda so'ngi bir yilda bajargan kasbiy faoliyat natijalari bo'yicha kreditlar yig'ib boradilar. Malaka

oshrish davomida kamida 8 kredit birligini to'plagan pedagog xodimlarga QR-kod tushirilgan elektron shakldagi sertifikat taqdim etiladi.

“JISMONIY TARBIIYA” YO‘NALISHI BO‘YICHA MALAKA OSHIRISH KURSI TAYANCH O‘QUV MODULLARINING MAZMUNI

1.1. Sport o'yinlarini tashkil etish.

“Sport o'yinlarini tashkil etish” (basketbol 3x3, badminton, mini-futbol) tarixi va rivojlanishi bosqichlari. Sport o'yinlarining tarixi va rivojlanishi, Osiyo va Yevropada tarqalishi, olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilishi. Sport o'yinlari (basketbol 3x3, badminton, mini-futbol) assotsiatsiyalarining tashkil topishi, faoliyati va ular rahbarligida sport musobaqalarini o'tkazish. Sport o'yinlari(basketbol 3x3, badminton, mini-futbol)da mashg'ulot va darslarni tashkil etish. Sport o'yinlari(basketbol 3x3, badminton, mini-futbol) ning qoidalarini, maydoni va jihozlarning o'lchamlari. Sport o'yinlari(basketbol 3x3, badminton, mini-futbol)da hujum va himoya taktikalar bo'yicha amaliy mashqlar bajarish. O'yinlarda jamoaviy, guruhli va yakka holda hujum va himoya taktikalari bo'yicha amaliy mashqlar bajarish. “Sport o'yinlarini tashkil etish” (basketbol 3x3, badminton, mini-futbol) da zamonaviy o'yin texnikasi va taktikasi, hujumga qarshi tez hujum taktikalari, o'yinchilarni joylarini almashtirish, to'psiz harakat qilish texnika va taktikalari bo'yicha amaliy mashqlar bajarish.

Sport o'yinlari (basketbol 3x3, badminton, mini-futbol)ni tashkil etishda jismoniy tayyorgarlik. Ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya va sport darslarida sport o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishga o'rgatish. Sport o'yinlarini tashkil etish” (basketbol 3x3, badminton, mini-futbol) bo'yicha amaliy mashqlar bajarish. “Sport o'yinlarini tashkil etish” (basketbol 3x3, badminton, mini-futbol) sport turlarida jarohat va uni oldini olish.

1.2. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi.

Qadimgi davrda jismoniy tarbiya. Qadimgi davrda jismoniy tarbiyaning xususiyatlari. Qadimgi Sharq davlatlarida jismoniy tarbiya. Qadimgi Gresiya davlatlarida jismoniy tarbiya. Sparta va Afina jismoniy tarbiya tizimlari.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish xususiyatlari. Sobiq Ittifoq davrida jismoniy tarbiya va sport tizimi. Jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash. Mehnat va o'quv muassasalarida jismoniy tarbiya va sport.

Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishi. Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash g'oyalarning rivojlanishi. Olimpiya shahrida olib borilgan arxeologik qazilmalar va ularning tahlili. XIX asrning oxirida zamonaviy olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasining hayotga tatbiq etilishi. Per de Kuberten faoliyatining ahamiyati. I-Xalqaro ta'sis Kongressi (1894) va uning tarixiy ahamiyati.

1.3. Jismoniy tarbiya va sportda ilg'or xorijiy tajribalar.

Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etilishi. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimi taraqqiyoti va ta'lim tizimi strategiyasi.

Sport ta'limi sifatini oshirishda AQSh, Yevropa va Osiyo davlatlari tajribasi. Sport ta'limi sifatini oshirishning global ahamiyati.

Ommaviy sport turlarini tashkil etish va boshqarishda xorijiy tajribalar. Professional sportni tashkil etishda rivojlangan davlatlar tajribasi. Xorijiy davlatlarda ommaviy sportni tashkil etish tamoyillari.

1.4. Yakuniy nazorat.

Yakuniy nazorat tayanch modullari mazmunidan kelib chiqib onlayn test sinovlari asosida tashkil etiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan yuqori natijaga erishgan tinglovchilarga tayanch modullarini to'liq o'zlashtirgan hisoblanadi va ularga 4 kredit ajratiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan kam ko'rsatgichga erishgan tinglovchilarga ikki marta qayta topshirish imkoniyati beriladi. Qayta topshirish natijasida onlayn test sinovlaridan 60 foizdan kam ko'rsatgichga erishgan tinglovchilar kursni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar o'quv modullari seminar-trening ko'rinishida olib borilishi ko'zda tutilgan. Nazariy mashg'ulot amaliy mashg'ulot bilan birgalikda olib boriladi. Amaliy mashg'ulotlarda savol-javob, taqdimot, aqliy hujum metodlaridan foydalaniladi.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovasion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishtidan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyat hamda mustaqil tajriba o'tirish natijalariga ajratilgan kreditlarni yig'ish orqali amalga oshiriladi. Kasbiy faoliyat turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka o'tash; iqtidorli va iste'dodli o'quvchilar bilan ishlash; ilmiy anjumanlarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy anjumanlarda maqolalar chop etish; o'quv adabiyotlari (hammualliflikdagi darslik, o'quv qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish. Mustaqil tajriba o'tirishda akademik litseylar pedagog xodimlari o'z ehtiyojlari va tanlovlaridan kelib chiqib, onlayn shakldagi tanlov modul dasturlarini o'zlashtiradilar. Mustaqil malaka oshirish shakli bo'yicha so'nggi bir yilda to'plangan kredit birliklari malaka oshirish natijalarini umumlashtirishda hisobga olinadi. Pedagog xodimlarning mustaqil malaka oshirish

natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jumallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T. "O'zbekiston", 2017. - 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. I-jild. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. - 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild - T.: "O'zbekiston", 2019. - 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-jild. - T.: "O'zbekiston", 2020. - 400 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" "O'zbekiston", 2021.-464 b.

II.Normativ-huquqiy hujjatlar

7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2023.
8. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasining 2005-yil 4-sentabrda O'RQ-394-sonli "Jismoniy tarbiya va sport" to'g'risidagi Qonuni (5.09.2005). Lex.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvar "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
- 12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr "Ilm-fanni 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.
- 13.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 3-iyun

"Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son Qarori. Lex.uz.

14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi «Sog'lom turnush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»ga PF6099-son Qarori. Lex.uz.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5148-son Qarori. Lex.uz.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 296-son Qarori.

III.Maxsus adabiyotlar

17. T.S.Усмонхўжаев, Ф.Толипонов, Х.Мелиев, Н.Хотамов "500 Харакатли ўйинлар" Услубий қўлланма.- Т.: Янги аср авлоди, 2014. -322 б.
18. Т.С.Усмонхўжаев, Ш.Х.Исроилов, А.А. Пулатов, Ш. А.Пулатов. Миллий ва ҳаракатли ўйинлар. Дарслик. -Т.: "иктисод-молия", 2005. -270 б.
19. Р.И. Нуримов, Ш.У.Абидов, З.Р.Нуримов, С.Р.Давлетмуратов. Спорт ва миллий ўйинлар (футбол). -Т.: "ИТА-ПРЕСС", 2005.- 82 бет.
21. I.Sh.Isroilov va boshqalar. Sport pedagogik mahoratini oshirish (futbol). Darslik. -T.; "IQTISOD-MOLIYA", 2005.- 225 bet.
22. Павлов И, Абдурахманов Ф., Акромов Ж. "Гандбол" дарслик. Т. 2005 й.
23. Павлов Ш.К., Азизова Р.И. Гандбол. (БУСМ ва БЎСМлари учун намунавий дастур). Т.: "Лидер-ПРЕСС" 2009 й.
24. А.А. Пулатов, Ф.В. Ганиева, В.М. Мирадилов, Д.Т.Хусанова, Ф.А.Пулатов. Баскетбол назарияси ва услубиёти. Дарслик.-Т.: "Сано-стандарт" нашриёти, 2017.- 349 б.
25. Ф. Мирахмедов, Қ. Арзибайев. Баскетбол. Методик қўлланма. -Т.: "НАВРЎЗ" нашриёти, 2017.- 57 б.
26. Л.Р. Айрапетянс, А.А. Пулатов. Волейбол назарияси ва услубиёти. Дарслик. -Т.: "Фан ва технология", 2002.- 208 б.
27. Ibragimov A.K. Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi (qo'l to'pi).-T.: Durdona nashriyoti, 2020.
28. Жуков М.Х. — М.: Подвижные игры: Учеб. для студ. пед. вузов. Издательский центр «Академия» 2000. - 160 с.
29. Ibragimov B.B., Ibragimov M.B Sport turlari bo'yicha musobaqalarni o'tkazish va hakamlik qilish. Darslik. -T.: Durdona nashriyoti,2021.
30. Ibragimov M.B., Futbol nazariyasi va uslubi. O'quv qo'llanma. -

T.:Kamolot nashriyoti,2023.

31. Моргунова И.И. Гимнастика ва уни ўқитиш методикаси. 2-нашр. Ўқув қўланма. -Т.: Илм-зиё, 2011.
32. Раджапов У., Арзибайев Қ. Гандбол. Методик қўланма. -Т.: "НАВРЎЗ" нашриёти, 2017. -49 б.
33. Nurimov R.L. "Futbol" darslik.- T.: O'zDITL, 2005.
34. Active schools. Kori ki te Kura. Games sport New Zealand 2002 year.
35. A Hand Book For Teaching Sports 1958-2008 year.
36. Harko Brown. Traditional Maori Games. - Copyright © 2006 year.
37. Adam Goodes. Yulunga: Traditional Indigenous Games. - Sydney 2009 year.

II. Internet saytlar

38. <http://lex.uz>
39. <http://ziyonet.uz>
40. <http://elib.buxdupi.uz>
41. <http://natlib.uz>

"ISHLAB CHIQILGAN":

Oliy ta'lim vazirligi kadrlari qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi

Direktor U. Sh Begimkulov

"24" _____ 2024-y.

M.O.



Buxoro davlat universiteti

Rektor

O.X.Xamidov

2024-y.

Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlari qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi

Direktor

B.R. Adizov

2024-y.



"KELISHILGAN":

Kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'limi boshlig'i

F.T.Esanboboyev

"23" _____ 2024-y.

M.O.